

Date: 7<sup>th</sup> July-2026

VATANGA MUHABBAT TALQINI

**Qambaraliyeva Mehriniso Mahmud qizi**

O'zbekiston, Kitob tumani, 25-maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O'zbekiston Qahramoni Abdulla Oripovning "Men nechun sevaman O'zbekistonni" nomli she'ri tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** tasvir, ifoda, vatan, timsol, obraz, tuyg'u, hissiyot, she'r, motiv

**Аннотация:** В данной статье анализируется стихотворение «Почему я люблю Узбекистан» Героя Узбекистана Абдуллы Орипова.

**Ключевые слова:** образ, выражение, родина, символ, образ, чувство, эмоция, стихотворение, мотив

**Abstract:** This article analyzes the poem "Why I Love Uzbekistan" by the Hero of Uzbekistan Abdulla Oripov.

**Keywords:** image, expression, homeland, symbol, image, feeling, emotion, poem, motif.

Abdulla Oripov ijodi o'lmas ijoddir. Cho'qqidan uzoqlashgan sayin uning salobati yuksalgani singari shoirning vafotidan keyin uning haqiqiy umri boshlandi. Shoirning har bitta she'rini o'qiganimizda, takror va takror she'r matni zimnidagi ma'no zalvorini his etamiz. Adabiyotshunos olimlar, o'quvchilari tomonidan ko'p maotaba tahlil qilingan "Men nechun sevaman O'zbekistonni" deb nomlangan mashhur she'ri mudom o'quvchilarni o'ziga rom etib kelmoqda.

Vatanga bo'lgan muhabbat inson qalbidagi eng ulug' va pokiza tuyg'ulardan biridir. Bu tuyg'u insonning tug'ilib-o'sgan yurti, uning tabiati, tarixi, xalqi va qadriyatlariga bo'lgan cheksiz mehrida namoyon bo'ladi. "Men nechun sevaman O'zbekistonni" she'rida shoir ana shu yuksak tuyg'uni samimiy va ta'sirchan badiiy obrazlar orqali ifodalaydi. She'rning bosh g'oyasi shundan iboratki, inson o'z Vatanini uning boyliklari yoki tabiiy ne'matlari uchungina emas, balki u ona yurti bo'lgani uchun sevadi.

She'r "Men nechun sevaman O'zbekistonni?" degan ritorik savol bilan boshlanadi. Shoir Vatan tuprog'ini ko'ziga to'tiyo qilishini, uning yeru osmonini muqaddas deb bilishini ta'kidlaydi. Bu misralar orqali Vatan inson uchun oddiy makon emas, balki eng aziz va muqaddas qadriyat ekanligi ifodalanadi. Shoirning Vatanga bo'lgan muhabbati juda samimiy bo'lib, u yurti bilan faxrlanishini yashirmaydi.

Keyingi bandlarda shoir o'z sevgisining sabablarini izlaydi. U boshqa mamlakatlarda ham paxta yetishtirilishini, quyosh faqat O'zbekistondagina emas, balki butun Osiyoda porlashini eslatadi. Demak, uning yurtiga bo'lgan muhabbati tabiiy boyliklar yoki iqlim bilan bog'liq emas. Asl sabab shundaki, O'zbekiston uning tug'ilib-o'sgan, ilk qadamlarini qo'ygan va qalbi bilan bog'langan muqaddas Vatani hisoblanadi. Shoir shu tariqa Vatanga muhabbatning asl mohiyati insonning qalbidan, uning ma'naviy dunyosidan kelib chiqishini ko'rsatadi.

She'rning yakuniy qismida shoir O'zbekiston bog'larini jannatga qiyoslaydi va Vatan tuprog'ini bebaho ne'mat sifatida ulug'laydi. "O'paman, tuprog'ing bebaho, Vatan!"



Date: 7<sup>th</sup> July-2026

degan misralar shoirning yurtiga bo'lgan cheksiz hurmati, sadoqati va muhabbatining eng yuqori ifodasidir. Bu satrlar o'quvchining qalbida ham Vatanga nisbatan faxr va mehr tuyg'ularini uyg'otadi.

Asarda bir qator badiiy vositalardan mahorat bilan foydalanilgan. Ritorik so'roqlar she'ning ta'sirchanligini oshirib, o'quvchini mushohada qilishga undaydi. "Muqaddas", "bebaho" kabi epitetlar Vatanning ulug'ligini ta'kidlaydi. "Bog'larin jannat" ifodasidagi o'xshatish O'zbekiston tabiatining go'zalligini yorqin tasvirlaydi. "Tuprog'in ko'zimga aylab to'tiyo" va "O'paman, tuprog'ing" kabi mubolag'ali ifodalar esa shoirning cheksiz muhabbatini yanada kuchliroq namoyon etadi.

She'ning ushbu qismida shoir Vatanga bo'lgan muhabbatning asl mohiyatini yanada chuqurroq ochib beradi. Agar avvalgi bandlarda O'zbekistonning tabiati va tuprog'i ulug'langan bo'lsa, bu bandlarda asosiy e'tibor xalq, tarix va ma'naviy qadriyatlarga qaratiladi. Shoir Vatan sevgisi tabiiy boyliklar yoki go'zal manzaralarga emas, balki xalqning taqdiri, tarixi va ona yurt bilan bog'liq ruhiy rishtalarga asoslanishini ta'kidlaydi.

Asar "Aslida tuproqni odil tabiat, taqsim aylagan-ku, yer yuziga teng" misralari bilan boshlanadi. Bu satrlarda shoir tabiat barcha xalqlarga yerni teng taqsimlaganini aytadi. Demak, hech bir xalqning yurti boshqasidan tabiatan ustun emas. Ammo inson uchun o'z tug'ilib-o'sgan yurti baribir eng aziz bo'lib qoladi.

Keyingi misralarda shoir mashhur ma'rifatparvar shoir Furqat hayotiga murojaat qiladi: "Nechun bu tuproq, deb yig'ladi Furqat, O, Qashqar tuprog'i, qashshoqmiding sen?" Bu yerda tarixiy ishora (alluziya) qo'llangan. Furqat vatandan uzoqda yashaganida yurt sog'inchi bilan yashagan. Shoir shu misol orqali Vatan qadri uning boyligi yoki kambag'alligi bilan emas, balki inson qalbidagi o'rni bilan belgilanishini ko'rsatadi.

She'ning eng ta'sirchan o'rinlaridan biri shoirning "Men ta'zim qilaman ona xalqimga" degan satridir. Bu yerda shoir avvalo xalqni ulug'laydi. Chunki Vatan faqat tuproq yoki hudud emas, balki unda yashayotgan xalq, uning tili, madaniyati va tarixi bilan qadrlidir. Shoir uchun xalq Vatan tushunchasining yuragi hisoblanadi.

Keyingi bandda shoir juda kuchli badiiy tasvir yaratadi. U tarix taqozosi bilan xalqi mangu muzliklarda yashashga majbur bo'lganida ham o'sha muzlarni sevishini aytadi. Bu fikr orqali shoir Vatanga bo'lgan muhabbat sharoitga bog'liq emasligini, inson ona yurti qayerda bo'lsa, o'sha joyni aziz bilishini ta'kidlaydi. Demak, muhabbat tabiatning go'zalligiga emas, balki Vatan va xalq bilan bog'liq ma'naviy rishtalarga asoslanadi.

She'ning yakuniy misralarida esa shoir muhim xulosaga keladi: "Yurtim, seni faqat boyliklaring chun sevgan farzand bo'lsa, kechirma aslo!" Bu satrlarda haqiqiy vatanparvarlik g'oyasi ilgari suriladi. Shoirning fikricha, Vatanni faqat uning boyliklari yoki manfaatlari uchun sevish chin muhabbat emas. Haqiqiy farzand Vatanini har qanday sharoitda sevadi va unga sadoqatli bo'ladi.

Ushbu parchada shoir badiiy tasvir vositalaridan juda mahorat bilan foydalangan. Avvalo, **ritorik so'roq** ("Nechun bu tuproq, deb yig'ladi Furqat?", "Sababini aytgin, desalar menga") o'quvchini mushohada qilishga undaydi va she'ning falsafiy mazmunini kuchaytiradi.



Date: 7<sup>th</sup> July-2026

Asarda **murojaat** san'ati ham qo'llangan. "Xalqim", "Yurtim", "O, Qashqar tuprog'i" kabi murojaatlar she'rga samimiylik va jo'shqinlik bag'ishlaydi. Shoir go'yo xalqi va Vatani bilan bevosita suhbatlashayotgandek taassurot uyg'otadi.

"Tuproqni odil tabiat" misrasida **jonlantirish (tashxis)** san'ati mavjud. Tabiat odil inson sifatida tasvirlanib, yerlarni teng taqsimlagandek ifodalanadi. Bu usul she'rning badiiy ta'sirchanligini oshiradi.

"Mangu muzliklar", "Qorliklarni makon etgan bo'lsayding" misralarida **ramziy obraz** yaratilgan. Muzlik va qor sovuq iqlimni emas, balki og'ir sinovlar, qiyinchiliklar va mashaqqatli taqdirni ham anglatadi. Shoir ana shunday og'ir sharoitda ham Vatanga bo'lgan muhabbat o'zgarmasligini ta'kidlaydi.

"Ona xalqim" birikmasida **epitet** qo'llanilgan. "Ona" so'zi xalqning muqaddasligi va mehribonligini ifodalab, uning qadrini yanada yuksaltiradi.

She'rda **takror** san'ati ham uchraydi. "Vatanlar, Vatanlar" so'zining takrorlanishi shoirning hissiyotlarini kuchaytiradi va barcha yurtlarga hurmat bildirgan holda o'z Vatanining betakror o'rnini alohida ta'kidlaydi.

Shuningdek, Furqat nomining tilga olinishi **talmeh (alluziya)** san'atining yorqin namunasi hisoblanadi. Bu tarixiy ishora she'r mazmunini boyitadi va Vatan sog'inchi g'oyasini yanada ta'sirchan qiladi.

Xulosa qilib aytganda, she'r Vatan siymosni chuqur badiiy-falsafiy mazmunda yoritadi. Shoir turli badiiy tasvir vositalari yordamida o'quvchini chin vatanparvarlik ruhida tarbiyalaydi va Vatan har qanday sharoitda ham inson uchun eng aziz maskan bo'lib qolishini ta'kidlaydi.

Xulosa qilib aytganda, "Men nechun sevaman O'zbekistonni" she'ri Vatanga sadoqat, milliy g'urur va ona yurtga bo'lgan cheksiz muhabbatni ulug'lovchi yuksak badiiy asardir. Shoir o'quvchini o'z Vatanini qadrlashga, uning har bir qarich yerini e'zozlashga va yurt ravnaqi yo'lida fidoyilik bilan xizmat qilishga da'vat etadi. She'r bugungi kunda ham o'z tarbiyaviy va ma'naviy ahamiyatini yo'qotmagan bo'lib, yosh avlod qalbida vatanparvarlik tuyg'ularini mustahkamlashga xizmat qiladi.

